



SHAXS FEL-ATVOR SIFATLARINING TAHLILI

Jalilova Marjona Elyor qizi

mirsaidjalilov70@gmail.com

Annotatsiya; Ingliz va o‘zbek tillarida sifat so‘z turkumi klassifikatsiyasi mohiyatan farq qiladi. O‘zbek tilshunoslari tomonidan ishlab chiqilgan tasnif so‘zlarning lug‘aviy ma‘nosiga asoslansa, ingliz tilida sifatlar leksik grammatik ko‘rsatkichlariga ko‘ra tabaqalanadi. Shu sababdan, ingliz tilida sifat so‘z turkumi tarkibida so‘roq va ko‘rsatish olmoshlari, sonlarni uchratish mumkin. Ingliz tilidagi tasnif sema yoki arxisemalarga qarab emas, so‘zlarning gapda sifatga hos vazifalarni bajara olishiga qarab ajratilgan.

Kalit so‘zlar; ijtimoiy hodisa, xolislik, semantic, sestem, struktura, paradigm, leksik, leksima.

O‘zbek tilida sifatlar ma‘no turlariga ko‘ra belgi-xususiyat, holat, shakl-ko‘rinish, rang-tus, hajm-o‘lchov, maza-tam, hidni anglatuvchi turlarga bo‘linadi. Aytish joizki, shaxs tasviri sifatleri ushbu leksik semantik guruhlarining deyarli barchasini qamrab oladi. Shaxs tasviri sifatleri deb tashqi ko‘rinig, yosh, aqliy salohiyat, fe‘l-atvor, kayfiyat va kishining kelib chiqishini anglatuvchi so‘zlar olindi. Ushbu tasnif ingliz tilidagi va o‘zbek tilidagi shaxsni tasvirlovchi sifatlar paradigmasini to‘liq qamrab oladi. Ular sirasida shahsga obyektiv baho beruvchi sifatlar bilan birga subyektiv munosabatni ifodalovchi vositalar ham kiradi.

Til doimiy o‘zgarishda bo‘lgan, jonli va ijtimoiy xodisadir. Shunga qaramay uni tizimli o‘rganish, til xodisalari orasidagi tizmiy munosabatlarni aniqlash tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ma‘lumki, “nutqiy faoliyat til va nutqning dialektik munosabatidan tashkil topishining e’tirof etilishi sistemaviy tilshunoslikning vujudga kelishiga dadil qadam bo‘ldi. Sistemaviy tilshunoslikka zidlanuvchi an’anaviy tilshunoslik til va nutqni farqlamagan holda, tilni, F. De Sossyur ta’biri bilan aytganda substansiya deb tushunadi va asosiy e’tiborni bevosita sezgi a’zolarimiz ta’siriga beriladigan moddiy vositalarni o‘rganishga qaratadi”. Buning aksi o‘laroq, struktur tilshunoslik til birlikleri orasidagi munosabatlarni o‘rganish bilan chegaralanmasdan, lison va nutqni izchil farqlab asosiy e’tiborni lisonga qaratadi. Lisonni tizmiy o‘rganish ham ingliz, ham o‘zbek tilshunoslarining e’tibor markazidagi masalalardan xisoblanadi.

Ingliz tilshunoslari qator til xodisalarini sitstem-struktur asosda tekshirgan – qator



tadqiqotlar morfologik va sintaktik sath elementlari tizimini aniqlashga bag‘ishlangan bo‘lib, bu borada olimlar E.Finegan, U.Nelson, Ch.Frays, J.Katz, J.Fodor¹ kabi olimlar ishlarni ingliz tilining ontologik tabiatini namoyon etuvchi, undagi umumiy struktur sistem munosabatlar haqida atroflicha ma‘lumot beruvchi va ayni damda alohida til xodisalarini sistem-struktur o‘rganish uchun metodologik ma‘lumotlar bazasi sifatida baxolanishi mumkin. O‘zbek struktur tilshunosligi esa XX asr o‘rtasida shakllana boshladi. O‘tgan davr mobaynida tilshunoslikning ushbu yo‘nalishida yaratilgan fundamental ishlar² istiqboldagi tadqiqotlar uchun asos bo‘lishi bilan qiymatlidir.

Anglashilganidek, struktur tilshunoslik asosan morfologik, sintaktik va leksik sath vositalarining grammatik ko‘rsatkichlari va semantik xususiyatlarini tizmiy o‘rganar ekan tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan sifat so‘z turkumining til tizimidagi o‘rni va vazifasi masalasiga ingliz tilida ham bot-bot murojaat etilgan. Ingliz tilshunosligida sifat paradigmasi tizimi va qurilishi, paradigmani tashkil etuvchi vositalar xususida tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ingliz tilida sifat so‘z turkumiga oid vositalar leksik grammatik ma‘nosiga ko‘ra shaxs yoki narsa buyum xususiyatini ifodalaydi; morfologik nuqtai nazardan daraja kategoriyasiga ega; birikuv xususiyatiga ko‘ra ot va olmoshlar bilan birikadi va ularning xususiyatlari haqida ma‘lumot beradi. Sifatlar otni aniqlashtirgani bilan ular shuningdek ravish, bog‘lovchi fe‘l va “one” so‘zi bilan ham birikadi³. Sifat so‘z turkumiga oid birliklar shakl yasovchi qo‘shimchalar yordamida gerund va sifatdoshga aylanadi, gapda asosan aniqlovchi vazifasini barajaradi.⁴

O‘zbek tilshunosligida ham sifat so‘z turkumiga beriladigan ta‘rif ingliz tilidagi bilan parallelizmi hosil qiladi. Ya‘ni, “sifatlar predmet, narsa-buyumning belgisini bildiradi, qanday, qanaqa so‘roqlariga javob bo‘ladi”. Ingliz tilidan farqli o‘laroq sifat bog‘lanib kelgan ot turli so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarni qabul qiladi, lekin sifat o‘zgarmaydi. Sifatlar darajalanadi. Belgining me‘yordan ortiq yoki kam darajada

¹ Бу ҳақида қаранг: Finegan E. Language: Its structure and use – Boston: Thompson Wadsworth, 2007 – 611 pp; Nelson W. The structure of American English. – New York: Ronald, 1958 – 632 pp; Fries Ch. The structure of English: An introduction to the construction of English sentences. – New York: Harcourt Brace, 1952 – 304 pp; Katz J., Fodor J. The structure of a semantic theory//Language, Volume 39 № 2 – Massachusetts, 1963 – 170-210 pp.

² Бу ҳақида қаранг: Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент, 1993. – 326.; Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент, 1995. – 1286.; Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. – Тошкент: Шарқ, 2005 – 1206.; Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони). Фил. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 486.; Ибрагимов Ж.Ё. Ўзбек тилини субстанциал-прагматик тадқиқ қилишнинг методологик асослари. Фил. фан. бўй. фалсафа док. автореф.-Қарши, 2019. – 426.; Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимидаги ўрни ва лингвопрагматикаси. Фил. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 716.

³ Бу ҳақида қаранг: Ирискулов М., Қўлдошев А. – Инглиз тили назарий грамматикаси. – Тошкент, 2008 – Б.34

⁴ Бу ҳақида қаранг: Ирискулов М., Қўлдошев А. – Инглиз тили назарий грамматикаси. – Тошкент, 2008 – Б.35-36



ekanligini ko'rsatish sifat darajalari deyiladi".⁵ Ushbu elementlarning gapdagi vazifasi esa ingliz tiliga nisbatan kengroq. Zero, o'zbek tilining o'ziga xos sintaktik qurilishi sabab morfologik sathdagi sifatlar gapda aniqlovchi vazifasi bilan cheklanmasdan shuningdek ega va kesim vazifasini ham bajarishi mumkin.

Leksik-grammatik ma'nosiga ko'ra ushbu paradigma ingliz tilida to'qqiz guruhga bo'linadi va ushbu guruhlarda vositalar quyidagicha tasniflanadi.

descriptive – tasviriy	quantitative – miqdoriy	proper – aniq
<i>Beautiful</i>	<i>Few</i>	<i>Single</i>
<i>Careful</i>	<i>Dozen</i>	<i>Double</i>
<i>Considerate</i>	<i>Little</i>	<i>Triple</i>
<i>Sweaty</i>	<i>Plenty</i>	<i>Second</i>
<i>Relaxed</i>	<i>Much</i>	<i>Fourth</i>
indefinite – noaniq	possessive – egalik	interrogative – so'roq
<i>Anyone</i>	<i>My</i>	<i>What</i>
<i>Someone</i>	<i>Our</i>	<i>Which</i>
<i>Something</i>	<i>their</i>	<i>Whose</i>
<i>Anything</i>	<i>his</i>	<i>what sort</i>
<i>Nobody</i>	<i>her</i>	<i>what kind</i>
demonstrative – ko'rsatish	article – artikl	compound – qo'shma
<i>This</i>	<i>A</i>	<i>open-minded</i>
<i>That</i>	<i>An</i>	<i>thick-skinned</i>
<i>Those</i>	<i>The</i>	<i>light-hearted</i>

Ma'lumki, sifat predmet belgisini anglatuvchi so'zlarni o'zida mujassam etuvchi mustaqil so'z turkumidir. Sifat predmetning jarayonda bo'lmagan belgi va xususiyatini ifodalashga xizmat qiladi. Shunday ekan sifat so'z turkumi tarkibiga olmosh va son xarakteriga ega so'zlar kirmasligi lozim.

Anglashiladiki, ingliz tilida sifatlar tasnifi semantik emas, aksariyat hollarda grammatik ko'rsatkichlar asosida amalga oshirilgan. O'zbek tilida esa sifatlar sof semantik xususiyatlariga ko'ra quyidagi ma'no turlariga tasniflanadi:

belgi-xususiyat	holat	shakl-ko'rinish
<i>go'zal</i>	<i>bo'ydoq</i>	<i>Aylana</i>
<i>zukko</i>	<i>g'amgin</i>	<i>to'rtburchak</i>

⁵ Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zMu, 2007 – B.123



<i>dangasa</i>	<i>horg'in</i>	<i>Aylana</i>	
<i>yoqimli</i>	<i>hushchaqchaq</i>	<i>Cho'ziq</i>	
<i>foydali</i>	<i>quvnoq</i>	<i>Ingichka</i>	
rang-tus	hajm-o'lchov	maza-ta'm	hid
<i>zangori</i>	<i>yirik</i>	<i>shirin</i>	<i>anvoyi</i>
<i>bug'doyrang</i>	<i>tor</i>	<i>nordon</i>	<i>badbo'y</i>
<i>moviy</i>	<i>katta</i>	<i>bemaza</i>	<i>qo'lansa</i>
<i>oq-sariq</i>	<i>jajji</i>	<i>mazali</i>	<i>hushbo'y</i>
<i>alvon</i>	<i>keng</i>	<i>achchiq</i>	

Yuqorida keltirilgan so'zlarning morfologik xususiyatlari sirasida so'z yasalishi va daraja kategoriyasini ta'kidlash mumkin. Ushbu xususiyatlar ingliz va o'zbek tilidagi vositalariga ham birdek xosdir. Ingliz tilshunosligida sifat so'z turkumi morfemik qurilishiga ko'ra fe'l yoki otdan ko'ra murakkab sanaladi. Ular kategorial xususiyatlariga ko'ra ham ot, ham fe'l ko'rsatkichlarini o'zida tashiydi.

Ingliz va o'zbek tilidagi sifatlarning yuqorida ta'kidlangan umumiy xususiyatlaridan biri daraja kategoriyasi ushbu so'z turkumining barcha vositalariga xos emas. Har ikki tilda ham daraja kategoriyasiga ega bo'lmagan sifatlarning mavjud. Ushbu elementlar shaxs tasviri sifatlari doirasida ham kuzatiladi.

Bevosita shaxs tasviri sifatlari to'xtalar ekanmiz ushbu paradigmani bir necha xususiyatlar sababli murakkab deya e'tirof etish mumkin. Birinchidan, ushbu maydon ko'lami yuqorida sanab o'tilgan qator sifatlarni qamrab oladi. Ular sirasiga tashqi ko'rinish, hajm, aqliy qobiliyat, xulq atvor kabi turli ma'nolarni ifodalovchi sifatlarning kiradi. Ushbu sifatlarning ayrimlari daraja kategoriyasiga ega bo'lsa, boshqalari darajalanmasligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, leksik-semantik guruhlarini tasniflashda ularning semalarini⁶ yoki arxisemalarini⁷ asos qilib olish lozim. Shu sababdan ingliz tilidagi sifatlarni ham grammatik va semantik belgilariga ko'ra aralash tasniflashdan, sof sifatlarni ma'no turiga ko'ra klassifikatsiyalash istiqbolda leksemalar orasidagi ma'no munosabatlarini yanada yaxshi anglashga imkon beradi. Masalan, ingliz va o'zbek tillaridagi shaxs tasviri sifatlari quyidagi ma'no guruhlariga bo'lish mumkin:

⁶ Бу ҳақида қаранг: Кузнецова Э. Части речи и лексико-семантические группы слов [Текст] / Э.В. Кузнецова // Вопросы языкознания. – 1975. – № 5. – С. 78-86.

⁷ Бу ҳақида қаранг: Гак В. Сопоставительная лексикология (на материале французского и русского языков) [Текст] / В.Г. Гак. – Москва: Международные отношения, 1977. – 264 с.



Appearance – tashqi ko‘rinish		Age - yosh		intellectual ability - aqliy salohiyat	
Charming	maftunkor	elderly	keksa	clever	zukko
Gorgeous	hushbichim	senior	qari	intelligent	oqil
Charismatic	Novcha	junior	navqiron	witty	donishman
chubby	Pakana	mid-aged	yosh	sound	iste’dodli
thin	baquvvat	one year old	o’rta yosh	insane	aqilli
tall	go‘zal	adolescent	qartaygan	gifted	o‘ylovli
short	ko‘rkam	superannuate	munkillaga	shrewd	mulohazali
blonde	zabardast	young	go‘dak	brainy	ahmoq
curly	puchuq	mature	murg‘ak	dimwitted	ziyrak
unpleasant	to‘la	youngling	yetilgan	hideboun	kaltabin
Mood - kayfiyat		Personality – fe‘l atvor		Origin – kelib chiqish	
happy	xursand	selfish	Xudbin	asian	Osiyolik
thrilled	quvnoq	stubborn	Qaysar	american	Amerikalik
annoyed	jahldor	considerate	Mulohazali	royal	Shaharlik
angry	hafa	Kind	Mehribon	european	Yevropalik
State – holat		speaking manner – so‘zlashuv		movement	
Tired	Charchagan	low pitched	Maydagap	deft	Shoshqaloq
Energetic	Serg‘ayrat	high pitched	So‘zamol	sluggish	Sust
Exhausted	Holdan toygan	chewing	Ezma	laggard	Ortda qolgan
Worried	Xavotirli	Slow	Sekin gapiradigan	frisky	Jirkanch
Confused	Chalkash	fast	Tez gapiradigan	awkward	Noqulay
Pleased	mamnun	stammering	Zaharhanda	bouncing	Sakrash
calm	sokin	Talkative	Ko‘p gapiradigan	Prompt	suflyor

Anglashilganidek, o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham shaxs tasviri leksik-semantik



maydoni morfologik sathda sifat soʻz turkumiga oid. Har ikki tilda mavjud sifatning maʼno turlariga tasnifiga koʻra ushbu soʻzlar mavjud sifat maʼno tasnifidagi barcha semantik guruh soʻzlarini qamrab oladi. Maydondagi muayyan elementlarga daraja kategoriyasi, soʻz va shakl yasovchi xususiyatlar xos boʻlgan holda, boshqalarida bunday xususiyatlar voqelanmaydi. Har ikki til paradigmasi elementlari gapda turli vazifalarni bajarishi, yaʼni sintaktik jihatdan polifunksionalligi bilan oʻzaro parallel hosil qiladi.

Shaxs tasviri sifatlarini antropotsentrik tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishda ushbu paradigma olamning lisoniy tasviridagi oʻrni xususida toʻxtalish oʻrinlidir. Maʼlumki, olamning lisoniy tasviri umumbashariy, milliy va shaxsiy turlarga boʻlinadi. Ushbu paradigmaning qolgan koʻplab maydonlardan farqi shundaki shaxs tasviri sifatleri olam lisoniy tasvirining barcha turlarini qamrab oladi. Masalan, ingliz va oʻzbek tilidagi muayyan shaxs tasviri sifatleri, yaʼni tashqi koʻrinish, yosh va kelib chiqish sifatleri olamning umumbashariy lisoniy tasvirini tashkil etadi.

Aksariyat hollarda ushbu sifatlar shaxsga nisbatan obyektiv baho beruvchi, barcha tillarda birdek ijobiy yoki salbiy maʼnoga ega boʻlishi mumkin. Shaxs tasviri sifatlarining umumbashariy olam lisoniy tasvirini tashkil etuvchi ulushi maʼlum bir darajada turli irq, millat va madaniyatlarga mansub boʻlgan kishilarning komil inson haqidagi umumiy tushunchalarini ochiqlashi bilan ahamiyatlidir. Masalan, tuzilishi va qurilishiga koʻra bir biridan keskin farqlanuvchi ingliz va oʻzbek tillarida qator shaxs-tasviri sifatleri ayni bir maʼnoni ifodalashga xizmat qiladi.

Bilamizki, “har bir tabiiy tilda borliqqa nisbatan oʻziga hos dunyoqarash mavjud, ushbu dunyoqarash albatta soʻzlovchilar nutqiy faoliyatida aks etadi”.⁸

Umumbashariy qiymatga ega boʻgan paradikma elementlaridan farqli oʻlaroq olamning milliy lisoniy tasvirini tashkil etuvchi sifatlar har bir tilning oʻziga xosligini namoyon etadi. Ushbu vositalar maʼlum bmr tilda soʻzlashuvchi xalqning shaxs tashqi koʻrinishi, feʼl atvori va boshqa qator xususiyatlari haqidagi tushuncha va munosabatlarini ifodalaydi. Birinchi guruh asosan shaxsning tashqi koʻrinishini tasvirlovchi soʻzlarni qamrab olsa, milliy lisoniy tasvir vositalari asosan kishining fel-atvori kabi botiniy sifatlarini oʻz ichiga oladi. Bunday sifatlar etimologiyasiga koʻra tilning oʻz qatlamidan kelib chiqqanligi, asosan shevalardan umumiy qoʻllanishga oʻtganligi bilan ajralib turadi. Bunday sifatarning tarjimai boshqa tillarda aniq muqobili boʻlmaganligi sabab biroz murakkab masalaga aylanishini ham taʼkidlash

⁸ Апресян Ю. Д. Избранные труды в 2х т: Интегральное описание языка и системная лексикография. – М.: Языки русской культуры, 1995. – С. 357



joiz.

Olamning shaxsiy lisoniy tasviri esa umumbashariy va milliy elementlarning uyg'unligi bo'lib ular nutqda voqelanishi so'zlovchining shaxsiy tajribasi, salohiyati, dunyoqarashi va intensiyasi bilan shartlanadi. Albatta, bunda so'zning lug'aviy ma'nosida semantik siljishni kuzatish tabiiy holdir. Zero, inson aqliy faoliyati mobaynida uning ongida boqliq haqida subyektiv taasurol shakllanadi. Inson tilni atrofdagi borliq bilan birga o'zlashtiradi, shunday ekan uning ongida olamning mantiqiy tasviri bilan birga va ayni damda undan farqli lisoniy tasvir ham shakllanadi.⁹ Demak, shaxs tasviri sifatleri olamning lisoniy tasviri bir qismi sifatida serqirra fenomenni namoyon etadi. Ushbu maydon tarkibida umumbashariy va milliy qadriyat va tushunchalarni anglatuvchi vositalar birdek o'rin olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Бу ҳақида қаранг: Finegan E. Language: Its structure and use – Boston: Thompson Wadsworth, 2007 – 611 pp; Nelson W. The structure of American English. – New York: Ronald, 1958 – 632 pp; Fries Ch. The structure of English: An introduction to the construction of English sentences. – New York: Harcourt Brace, 1952 – 304 pp; Katz J., Fodor J. The structure of a semantic theory//Language, Volume 39 № 2 – Massachusetts, 1963 – 170-210 pp.
2. Бу ҳақида қаранг: Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент, 1993. – 326.; Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент, 1995. – 1286.; Набиева Д. Узбек тилининг турли сатхларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён булиши. – Тошкент: Шарқ, 2005 – 1206.; Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони). Фил. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 486.; Ибрагимов Ж.Ё. Ўзбек тилини субстанциал-прагматик тадқиқ қилишнинг методологик асослари. Фил. фан. бўй. фалсафа док. автореф.-Қарши, 2019. – 426.; Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларнинг лисоний тизимидаги ўрни ва лингвопрагматикаси. Фил. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 716.
3. Бу ҳақида қаранг: Ирискулов М., Қўлдошев А. – Инглиз тили назарий грамматикаси. – Тошкент, 2008 – Б.34
4. Бу ҳақида қаранг: Ирискулов М., Қўлдошев А. – Инглиз тили назарий грамматикаси. – Тошкент, 2008 – Б.35-36
5. Holmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zMu, 2007 – B.123

⁹ Бу ҳақида қаранг: Павилёнис Р. Проблема смысла: Современный логико-функциональный анализ языка. – М., 1983



6. Бу ҳақида қаранг: Кузнецова Э. Части речи и лексико-семантические группы слов [Текст] / Э.В. Кузнецова // Вопросы языкознания. – 1975. – № 5. – С. 78-86.
7. Бу ҳақида қаранг: Гак В. Сопоставительная лексикология (на материале французского и русского языков) [Текст] / В.Г. Гак. – Москва: Международные отношения, 1977. – 264 с.
8. Апресян Ю. Д. Избранные труды в 2х т: Интегральное описание языка и системная лексикография. – М.: Языки русской культуры, 1995. – С. 357